

**O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA MAHALLIY
BOSHQARUV INSTITUTLARINING ROLI**

Abdusalomov Amrillo Abdurafikovich

“Raqamli transformatsiya markazi” MCHJ

Annotatsiya Respublika hududida keng raqamli iqtisodiyotni joriy etilishi nafaqat kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar uchun foydali, balki mamlakat makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarining barqarorlashuviga olib keladi. Raqamli iqtisodiyotning yo‘lga qo‘yilishi bir qancha byurokratik holatlarni ko‘payishi kabi muammolarni oldini oladi va ishsizlik ko‘lamining kamayishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Respublikada raqamli iqtisodiyotni samarali shakllantirish va rivojlanganlik darajasini baholash, raqamli iqtisodiyot tayanch institutlari maqomida elektron tijorat va elektron bandlik xususiyatlarini ochib berish; mamlakatimiz korxonalarida zamonaviy AKT joriy qilish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish muammolarini aniqlash, O‘zbekistonda elektron hukumat faoliyati, birja elektron savdo tizimlar, Internet-do‘konlar, xizmat ko‘rsatish asosiy tarmoqlar holatini aniqlashda foydalanishi mumkin bo‘ladi.

Аннотация Внедрение широкой цифровой экономики на территории республики выгодно не только малому бизнесу и частным предпринимателям, но и приводит к стабилизации макроэкономических показателей страны. Внедрение цифровой экономики предотвратит такие проблемы, как увеличение количества бюрократических дел, и окажет влияние на снижение безработицы. Эффективное формирование цифровой экономики в республике и оценка уровня развития, раскрывающая особенности электронной коммерции и электронной занятости как основных институтов цифровой экономики; с его помощью можно будет определить проблемы внедрения современных ИКТ на предприятиях нашей страны и развития цифровой экономики, определит состояние деятельности электронного правительства, биржевых электронных торговых систем, интернет-магазинов и Основные сферы услуг в Узбекистане.

Abstract Effective formation of the digital economy in the Republic and assessment of the level of development, revealing the characteristics of e-commerce and e-employment as the main institutions of the digital economy; it will be possible to use it to determine the problems of introducing modern ICT in the enterprises of our country and the development of the digital economy, to determine the status of the activities of electronic government, exchange electronic trading systems, Internet stores, and the main service industries in Uzbekistan. Effective formation of the digital economy in the republic and low-level development, revealing the peculiarities of electronic commerce and electronic industry as basic institutions of the digital economy; s ego pomoshchyu mojno budet obredelit problems of introducing modern IKT and predpriyatiyax nashey strany i razvitiya cifirovoy

20-Fevral, 2026-yil

ekonomiki, opredelit sostoyanie deyatelnosti elektronogo pravitelstva, birzhevykh electronic trading system, internet-magazines and Osnovnye sfery uslug in Uzbekistan.

Калит сўзлар: *elektron tijorat, elektron bandlik, elektron hukumat, korxona, tashkilotlarida, raqamli iqtisodiyot, muammolar, tahlil qilish, moliyaviy jihatlar, Internet-do'konlar, xizmat ko'rsatish.*

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqligi barchaga ma'lum.

Hozirgi kunda zamonaviy iqtisodiyotda har qanday korxonaning yutuqlari birinchi navbatda AKT tizimida zarur axborotdan foydalanish bilan bog'liq boshqaruv qarorlarini tezkor va samarali qabul qilish hisoblanadi. Shu tufayli AKTni rivojlantirish va joriy qilish respublika korxonalari uchun juda muhimdir. Bu zamonaviy bosqichda kompaniyalarga yetakchilar maqomiga erishishga imkon beradi. O'zbekistonda AKTning rivojlanishi bir necha bosqich bilan tavsiflanadi:

N	O'zbekistonda AKTning rivojlanish bosqichi
1	Rivojlanishning boshlang'ich bosqichi (2000-2002 yillar) - AKTni bosqichma-bosqich joriy etish hamda davlat boshqaruvini yaxshilash bosqichi;
2	Ikkinchi bosqich (2003-2007 yillar) - asosiy qonunchilik-me'yoriy hujjatlarni qabul qilish hamda AKTni ommaviy joriy etish bosqichi;
3	Uchinchi bosqich (2008-2012 yillar) - davlat organlarida ichki axborot tizimlar va dasturiy mahsulotlarni faol joriy qilish hamda axborot elektron xizmatlarni taqdim etish boshlanishi bosqichi;
4	To'rtinchi bosqich (2012 yildan hozirgi vaqtgacha) - davlat boshqaruvi tuzilmasini yanada takomillashtirish bosqichi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar rivojlanishining hozirgi bosqichiga shakllanish va rivojlanishning yuqori dinamikasi xosdir.

Hozirgi kunda mamlakatimiz Prezidenti, hukumati AKT rivojlantirishi hamda ularni jamiyat faoliyatining barcha sohalari ommaviy joriy qilish qiliga alohida e'tibor berishmoqda. Bu borada qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi amalga oshirish yillar mobaynida YaIMda tarmoqning ulushi 1,9% dan 2,2% gacha oshdi. BMTning elektron hukumat bo'yicha reytingida respublikamiz indikatorlari ko'pchiligi ancha yaxshilandi.

Raqamli iqtisodiyot yangi turdagi iqtisodiyot bo'lib, rivojlanishning insonlar imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan hamda axborot, bilimlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish tufayli farovonlikning o'sishiga imkon beradi.

Raqamli iqtisodiyot sohasiga axborot jamiyati va makoni, AKT va ishlab chiqarishning har xil turlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasi kiradi. Raqamli iqtisodiyotda AKT tizimi orqali axborotni yaratish, ishlov berish, to'plash va uzatish jarayonlari tadqiq qilinadi.

20-Fevral, 2026-yil

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi AKT rivojlanishi bilan bog‘liq iqtisodiy jarayonlarning ilmiy asoslanishi, YaIMda xizmatlar ulushi va boshqa ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

Afsuski, respublikamizda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va uni rivojlantirish bilan bog‘liq tadqiqotlar hozirgi vaqtgacha chuqur o‘rganilmagan. Ushbu tadqiqotlarning o‘tkazilishi mamlakatimiz korxonalarida zamonaviy AKTni joriy qilish muammolari, zamonaviy bosqichda raqamli iqtisodiyotning roli va rivojlanishini o‘rganish va tahlil qilishga, O‘zbekistonda uni shakllantirish va rivojlanish holatini aniqlash hamda rivojlanishi uchun taklif va tavsiyalar berish imkonini beradi. Taklif qilingan ilmiy tadqiqotlar natijalari hukumat organlari tomonidan Respublikada raqamli iqtisodiyotni samarali shakllantirish va rivojlanganlik darajasini baholash, raqamli iqtisodiyot tayanch institutlari maqomida elektron tijorat va elektron bandlik xususiyatlarini ochib berish; mamlakatimiz korxonalarida zamonaviy AKT joriy qilish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish muammolarini aniqlash, O‘zbekistonda elektron hukumat faoliyati, birja elektron savdo tizimlar, Internet-do‘konlar, xizmat ko‘rsatish asosiy tarmoqlar holatini aniqlashda foydalanishi mumkin bo‘ladi.

Raqamli iqtisodiyotda AKT tizimi orqali axborotni yaratish, ishlov berish, to‘plash va uzatish jarayonlari tadqiq qilinadi. Ushbu jarayonlar integratsiyalashgan tarmoqda axborot, asbob-uskunalar ishlab chiqaruvchilari hamda uning iste’molchilari, davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasida amalga oshiriladi. Axborot mahsulotni ishlab chiqarish va iste’mol qilish raqamli iqtisodiyotning asosiy harakatga keltiruvchi kuchi hisoblanadi.

O‘rganib chiqib tahlil qilingan, taklif etilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalari hukumat organlari tomonidan Respublikada raqamli iqtisodiyotni samarali shakllantirish va rivojlanganlik darajasini baholash, raqamli iqtisodiyot tayanch institutlari maqomida elektron tijorat va elektron bandlik xususiyatlarini ochib berish; mamlakatimiz korxonalarida zamonaviy AKT joriy qilish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish muammolarini aniqlash, O‘zbekistonda elektron hukumat faoliyati, birja elektron savdo tizimlar, Internet-do‘konlar, xizmat ko‘rsatish asosiy tarmoqlar holatini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish strategiyasi tez o‘sish tendensiyalarini namoyish qilmoqda. AKTni faol joriy qilish axborot rolining o‘zgarishiga, mehnat bozorda tuzilmaviy disproporsiyalarga, bir turdagi tarmoqlarning boshqalar bilan o‘zaro bog‘liq holda ishlash hajmining o‘sishiga, iqtisodiyotning chuqur ilmiy asoslanishi va YaIMda xizmatlar sohasining ulushi oshishiga olib keladi.

AKTni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning kafolati bo‘lib o‘tkazilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar asosida raqamli iqtisodiyot indikatorlarining samarali tizimini yaratish hisoblanadi.

Har qanday davlatning siyosiy tizimida mahalliy boshqaruv institutlari muhim o‘rin tutadi. Zero, bu institut davlat boshqaruvining aholiga eng yaqin bo‘g‘ini hisoblanib, ular bevosita yuqori davlat organlari tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar va

20-Fevral, 2026-yil

davlat dasturlarining joylardagi samarali ijrosini ta'minlaydi. Shuning uchun ham mahalliy hokimiyat tizimining muvaffaqiyatli tashkil qilinishi hamda to'g'ri boshqaruv usuli tanlanishi hudud iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalarining rivojlanishiga zamin yaratadi. Satterthwaite¹ fikriga ko'ra, mahalliy davlat hokimiyati tuzilmalari raqamli iqtisodiyot va ijodkorlikni rivojlantirish muhim rol o'ynaydilar. Chunki aynan ularning tegishli yo'nalishlarni, o'z hududlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, rivojlantirish bo'yicha qarorlarni qabul qilish va tegishli choralarni amalga oshirish imkoniyati ko'plab sohalarda faoliyat olib boradigan AKT biznes kompaniyalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi tadqiqotlarda belgilanib o'tilgan.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 99-moddasiga muvofiq Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar. Hamda ularning vazifalariga quyidagilar: hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish, mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish kiradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlariga yuklatilgan hududlarining iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilishi² vazifasi esa hududlarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rnini belgilaydi. O'zbekiston hududlarida mahalliy davlat hokimiyati organlarini quyidagi vakolat yo'nalishlarida tahlili natijasida quyidagi muammolar mavjudligi aniqlandi: boshqarmalar, asosan, yuqori tashkilot, ya'ni Vazirlik tomonidan berilgan vazifalarni joylarda bajarish bilan shug'ullanib, Mahalliy davlat hokimiyati organlari mustaqil ravishda hududlarni raqamlashtirish borasida tashabbuslarni amalga oshirmayapti hamda AKT sohasini rivojlantirish va raqamli iqtisodiyotni shakllantirish borasida o'z salohiyatidan yetarlicha yetarli darajada foydalanmayaptilar. Shu sababdan, hududlarda raqamli transformatsiya infratuzilmasi yetarli darajada shakllanmagan.

2. Hududlarda AKT infratuzilmasini rivojlantirishning moliyaviy ta'minoti, asosan, Respublika byudjeti va Vazirlar Mahkamasi qarori bilan boshqa byudjetlar tomonidan moliyalashtirilmoqda. Mahalliy davlat hokimiyati tomonidan mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish kabi vazifalar kiritilganiga qaramay, hududlarni raqamlashtirishga qaratilgan jamg'armalar tuzilmagan hamda mahalliy davlat hokimiyati

¹J.Fazlagi'c, E. Szczepankiewicz, The Role of Local Governments in Supporting Creative Industries-A Conceptual Model, MDPI, 2019/

² “O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish Vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish Vazirligi huzuridagi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida nazorat bo'yicha inspeksiya to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 1 maydagi 318-son Qarori.

20-Fevral, 2026-yil

tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mahalliy byudjetlar shakllantirilmagan.

3. Hozirda Mahalliy davlat hokimiyati organlari hududlardagi talabga binoan Vazirlar Mahkamasiga universitet, ta’lim markazlari va boshqa ta’lim muassasalarini tashkil etish bo‘yicha takliflar berish bilan chegaralanib qolmoqda. Mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘z tashabbuslari bilan AKT sohasida xususiy yoki davlat-xususiy sherikchilik asosida ta’lim muassasalari tashkil etilmagan.

4. Bugungi kunda mahalliy davlat hokimiyati organlari hududlarda AKT sohasini rivojlantirish va raqamli iqtisodiyotni shakllantirish borasida nodavlat notijorat tashkilotlari salohiyatidan yetarlicha foydalanmayapti. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

1) NNTlarni hududlarni rivojlantirishga keng jalb etishda mahalliy davlat organlari vakillari bu borada yetarlicha salohiyatga ega emas;

2) NNTlar (ayniqsa, raqamli iqtisodiyot yo‘nalishlarini rivojlantirishga qaratilgan) vakillari salohiyatining yetarli emasligi³;

3) hududlarda NNTlarni moliyalash tizimi samarali yo‘lga qo‘yilmagan. Bu muammolar o‘z navbatida, hududlarni “Aqlli shahar”, “Aqlli qishloq”, “Aqlli hududlar”ga aylantirish borasida imkoniyatlarni cheklaydi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun hududlarda raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini yaratishda mahalliy davlat hokimiyati quyidagi omillarni rivojlantirishi talab etiladi:

a) ilmiy tadqiqot va oliy ta’lim muassasalari mavjudligi va ularning innovatsion faoliyat olib borishlari uchun yuqori malakali mutaxassislar hamda tegishli (zamonaviy) asbobuskunalar bilan ta’minlanganligi;

b) AKT biznes inkubatorlarining mavjudligi, ularning yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanganligi va samarali faoliyat yuritishlari uchun sharoitlar yaratish;

v) moliya institutlarining mavjudligi va uni moliyalashtirishning samarali tizimi


g) raqamli iqtisodiyot sohasida davlat va nodavlat tashkilot vakillari doimiy ravishda malakasini oshirib boradigan tizimning mavjudligi;

d) ilg‘or texnologiyalarni rivojlantirish va joriy etishda, Internet qamrovini ta’minlashda AKT sohasida xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyalarning mavjudligi;

e) AKT sohasida menejment, marketing, texnologiyalarni qo‘llash kabi yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatayotgan konsalting kompaniyalarining mavjudligi; j) raqamli iqtisodiyot sohasida g‘oya, innovatsiyalarni intellektual mulk shaklida himoya qilish tizimining mavjudligi;

z) innovatsiyalarni rivojlantiruvchi NNTlar faol ishtirokining ta’minlanganligi; i) mamlakat ichida va xorijiy davlatlarda AKT xizmati va mahsulotlarni eksport qilish va ularni tijoratlashtirish samarali tizimining yo‘lga qo‘yilganligi tashkil etish lozim

³ Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti tomonidan tayyorlangan “O‘zbekistonda “uchinchi sektor” holati: rivojlanishning hozirgi ahvoli va istiqbollari” mavzuidagi analitik doklad, T., 2018 23-28 b. 48 yo‘lga qo‘yilgan;



1-rasm. Hududlarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning innovatsion infratuzilmasi

Shunday qilib, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ushbu omillarni rivojlantirish va faoliyat tizimini yo‘lga qo‘yish mamlakatimiz hududlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlanishini ta’minlab, uning iqtisodiy imkoniyatlaridan foydalanish darajasining ortishiga zamin yaratadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1.“O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish Vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish Vazirligi huzuridagi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida nazorat bo‘yicha inspeksiya to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 1 maydagi 318-son Qarori.

2.J.Fazlagi’c, E. Szczepankiewicz, The Role of Local Governments in Supporting Creative Industries-A Conceptual Model, MDPI, 2019.

3.Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti tomonidan tayyorlangan “O‘zbekistonda “uchinchi sektor” holati: rivojlanishning xozirgi ahvoli va istiqbollari” mavzuidagi analitik doklad, T., 2018 23-28 b. 48 yo‘lga qo‘yilgani;

4.G‘ulomova N.F., Bekchanov D.M., “O‘zbekiston hududlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish tizimini takomillashtirish masalalari”// «Vestnik Karakalpakskogo otdeleniya AN RUZ» Karakalpakskoe otdelenie Akademii nauk Respubliki Uzbekistan, 2020.